

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
hududiy xay‘at raisi

M.I. Xakimova

03

2025 y.



«TASDIQLAYMAN»


Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
direktori

L.X. Musadjanova

«04»

03

2025y.



Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

“ICHKI KASALLIKLARDA HAMSHIRALIK ISHI”

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent-2025 yil

TUZUVCHILAR:

N.S. Ganieva

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

S.R. Ismailova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

D.Z. Abdusamatova

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi "Klinik
farmakologiya" kafedrasi katta o'qituvchisi
t.f.n

Z.Z. Imomova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika
xodimlari malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi o'quv ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari


O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 03 2025 .y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



 L.X. Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama
qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 5 » 03 2025 .y.

bayonnoma № 2

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"giPQ- 4310-sonva 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash vazirligi kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" giPQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo'lib, kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalarida ichki kasalliklar bo'limlari hamshiralarni malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad: O'qish natijasida "Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi" bo'yicha o'rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlari (ichki kasalliklar bo'limi hamshiralari, feldsherlar) ni har tomonlama yetuk va mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'ziga hosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, bemorlarga sifatli hamshiralik yordamini ko'rsatish, bemor hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va meyoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;

- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, aholini tibbiy ko‘riklaridan o‘tkazish, biriktirilgan aholi guruxlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko‘p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish;
- *Milliy klinik protokollar asosida amaliy ko‘nikmalarni qo‘llash, ular asosida ishlash ko‘nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;*
- Bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini mukammallashtirish.

• **1.3. Ta‘lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

- O‘quv dastur bo‘yicha davolash profilaktika muassasalari ichki kasalliklar bo‘limlari hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, ya‘ni mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo‘lgan hamshiralar uchun mo‘ljallangan.

• **1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo‘llayoladigan, notiqlik san‘atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo‘lishi;
- Hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, radetishi, bemorlarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- Tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini amalga oshira olishi;
- Hamshiraning huquqiy ma‘suliyatlari, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi mezonlarini bilishi;
- Aholiga tibbiy parvarishni tashkil etishdagi meyoriy hujjatlarni yurita olishni;
- Tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini qo‘llay olishni;
- Kasalliklar bo‘yicha hamshiralik parvarishi rejalarini tuza olishi;
- Ichki kasalliklarni aniqlashda zamonaviy tekshirish usullari haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi;
- Ichki kasalliklarda zamonaviy tibbiy rehabilitatsiya usullari va davolovchi jismoniy tarbiya mashqlarini qo‘llay olishni;
- Parhez stollariga amal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- Shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralarini qo‘llay olishni.

1.5. Dasturning dolzarbligi: O‘quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo‘llash, bemorlarga terapevtik yordaminiko‘rsatish, aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda samaradorligini baholash uchun turli xil tibbiy tashkilotlarning tashkiliy tuzilishi, boshqaruv va xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi bilimlardan foydalanish, shuningdek tibbiyot huquqi bo‘yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviyilm-fan yutuqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o‘zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dasturhajmi: 144kredit (kuniga 6 soat, haftada36 kredit).

1.7. O‘qishshakli:

- kunduzgi - o‘qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy -o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlar 9⁰⁰da boshlanib, 13⁴⁰da tamom bo‘ladi.Tushlik - 30daqqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- ✚ Mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlaganishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- ✚ o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda yangi texnologiyalarni keng tadbiq etish;
- ✚ hamkasb, hamshira va kichik tibbiy xodim, bemor va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- ✚ so'rovnomalarni, jismoniy ko'riklar o'tkazish, ambulator va statsionar bemorlarga tibbiy xujjatlarni rasmiylashtirish;
- ✚ zamonaviy tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, internet tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash;
- ✚ kasallikni erta va yashirin turlarini, havf omillarini aniqlash uchun zamonaviy birlamchi, ikkilamchi profilaktik ishlarni amalga oshirish;
- ✚ *klirik protokollar bilan ishlash;*
- ✚ *antropometrik o'lchov, tekshiruv ko'nikmalarini shakllantirish va olingan natijalarni tahlil qilish;*
- ✚ nafas yo'llari kasalliklarida qo'llanilayotgan zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi va reabilitatsiyasi;
- ✚ yurak-kon tomir tizimi kasalliklarida qo'llanilayotgan zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishi va kardioreabilitatsiyasi;
- ✚ *to'piq –elka indeksini aniqlash va baholash;*
- ✚ ovqat-hazm qilish tizimi kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishi va reabilitatsiyasi;
- ✚ nutritsiologiya asoslarini;
- ✚ buyrak va siydik yo'llari kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolanish usullari, hamshira parvarishi va reabilitatsiyasi;
- ✚ endokrin tizimi kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi va reabilitatsiyasi;
- ✚ diyetoterapiyaning ahamiyatini;
- ✚ asab tizimi kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi va neyrorreabilitatsiya choralarini;
- ✚ qon va qon yaratish a'zolari kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishini;
- ✚ allergik kasalliklar va dori-darmonlar bilan zaharlanishlarda zamonaviy tekshirish usullarini;
- ✚ biriktiruvchi to'qima bo'g'im kasalliklarida qo'llanilayotgan zamonaviy tekshirish va davolash usullarini;
- ✚ reabilitatsiya dasturlarining samaradorligi va sifatini nazorat qilish imkoniyati;
- ✚ shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish ko'nikmalarini mustahkamlash;
- ✚ bemorlarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish;
- ✚ davolovchi jismoniy tarbiyani tashkil etish, o'rnatilgan tartibda hujjatlashtirish;
- ✚ aholida o'z salomatligini saqlash, sog'lom turmush tarziva sog'lom oilani shakllantirish bo'yicha sanitariya-targ'ibot ishlarini olib borish.

3. DASTUR MAZMUNI

3.1. "Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi" kursi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlar		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirishmoduli	32	16	16		
1.1	Modul. O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul:Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	<i>Modul: Terapevtik bo`lim hamshirasining vazifalari va bemorlarni tekshirish usullari. Tibbiy maslahat va shaxslar o`rtasidagi muloqot</i>	6	4	2		
2.2	<i>Modul: Nafas yo`llarining infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, SOO`Klar sababi va klinik kechishi, hamshira parvarishi va reabilitatsiya.</i>	12	4	8		
2.3	<i>Modul: Kardiologik kasalliklar, zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishi. Kardioreabilitatsiya.</i>	14	10	4		
2.4	<i>Modul: Gastroenterologik kasalliklar, zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishi va reabilitatsiyasi. Nutritsiologiya asoslari.</i>	12	4	8		
2.5	<i>Modul: Nefrologik kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, o`tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligida hamshira parvarishi va reabilitatsiyasi.</i>	12	4	8		
2.6	<i>Modul:Endokrin tizimi kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi va reabilitatsiya. Diyetoterapiyaning ahamiyati.</i>	12	4	8		
2.7	<i>Modul:Biriktiruvchi to`qima bo`g`im kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi, reabilitatsiya.</i>	12	4	8		
2.8	<i>Modul: Asab va bosh miya qon tomir kasalliklari, zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi va neyrorabilitatsiya choralari.</i>	6	2	4		
2.9	<i>Modul: Gemotologik kasalliklar, zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishi.</i>	6	4	2		
2.10	<i>Modul:Allergik kasalliklar va dori-darmonlar bilan zaharlanishlarda shoshilinch yordam ko`rsatish va hamshiralik parvarishi.</i>	6	2	4		
2.11	<i>Modul:Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko`rsatish.</i>	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	4			4	
4.0	Attestatsiya	4				4

Jami:	144	60	76	4	4
--------------	------------	-----------	-----------	----------	----------

“Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi” kursi o‘quv modullarining mazmuni.

1.1. Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati. Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

1.2. Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyliigi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3. Modul. Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo‘llaniladigan me‘yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o‘tkazishda o‘rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar haqidatushuncha. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalaniish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiya bo‘limidagi yuritiladigan me‘yoriy hujjatlar. Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo‘limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta‘minlovchi tadbirlar, uni

tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Tibbiyot valeologiyasi. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1. Modul: Terapevtik bo'lim hamshirasining vazifalari va bemorlarni tekshirish usullari. Tibbiy maslahat va shaxslar o'rtasidagi muloqoti.

Terapevtik bo'lim hamshirasining vazifalari va bemorlarni tekshirish usullari. Soha bo'yicha chiqarilgan Prezident qaror va farmonlari, SSVning buyruqlar mazmun mohiyati. Tibbiy maslahat va shaxslar o'rtasidagi muloqoti. Ichki kasalliklarda hamshiralik ishi. Terapevtik sohadagi yangiliklar bilan tanishtirish. Ichki kasalliklar bo'limlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassis hamshiralarning majburiyatlari. Terapevtik bemorlarni hamshira parvarishi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Hamshiralik jarayoni bosqichlari va hamshiralik protokollari bilan ishlash. Tibbiy maslahat va shaxslar o'rtasidagi muloqoti.

2.2. Modul: Nafas yo'llarining infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, SOO'klar sababi va klinik kechishi, hamshira parvarishi va reabilitatsiya.

Infeksiyon va noinfeksiyon nafas tizimi kasalliklar, SOO'klar (Surunkali obstruktiv o'pka kasalliklari) sabablari va klinik kechishi, dunyo bo'yicha tarqalish yo'llari va ularning profilaktikasi. Kasalliklarni aniqlashda zamonaviy yondoshuv, bemorlarni zamonaviy tekshiruv usullarini o'tkazishda hamshiraning o'рни. Bronxit, bronxial astma kasalliklarni kelib chiqishida ekologiya, atrof-muhit, infeksiyaning ta'siri. Kasalliklarning tasnifi, zamonaviy tekshirish, davolash va parvarishlash usullari. Kasalliklarining profilaktikasi, asoratlarini oldini olishda hamshiralik jarayoni olib borish. Kasbga aloqador nafas yo'llari kasalliklari bilan og'rigan bemorlar parvarishining o'ziga xos xususiyatlari. Zotiljam, plevrit, o'pka sili kasalliklarni kelib chiqish sabablari, hamshiralik tashxisi. Yuqori va pastki nafas olish a'zolari tizimining kasalliklarida reabilitatsiya chora tadbirlari.

2.3. Modul: Kardiologik kasalliklar, zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishi. Kardioreabilitatsiya.

Kardiologik kasalliklarini dunyo bo'yichatarqalishini, ularning kelib chiqish sabablarini, asoratlarini oldini olish chora-tadbirlari. Yurak, qon – tomir tizimi kasalliklarini zamonaviy tekshirish usullari va ularga bemorlarni tayyorlashda hamshiraning roli. Ateroskleroz sabablari, belgilari zamonaviy tekshirish usullari, asoratlari, bemorlarga tavsiyalar berish. Arterial gipertenziya, kelib chiqish sabablari. Arterial gipertenziyada bemorlarni zamonaviy tekshirish, davolash, hamshira tashhisi va bemorni parvarishlash. Huruj davrida shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish, va parvarishlash. Gipertonik kriz, klinik belgilari, bemorga shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish, parvarishlash. Yurak ishemik kasalliklari. Stenokardiya turlari, klinikasi. Stenokardiya hurujida shoshilinch yordam ko'rsatish. Miokard infarkti, sabablari, klinikasi, shoshilinch yordam ko'rsatish. Terapevtik bemorlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini va ratsional ovqatlanishni to'g'ritarg'i bqlish. Yurak, qon – tomir tizimi kasalliklarida hamshira parvarishi, kardioreabilitatsiya chora tadbirlari.

2.4. Modul: Gastroenterologik kasalliklar, zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishi va reabilitatsiyasi. Nutritsiologiya asoslari.

Oʻtkir vasurunkali gastritlar. Kasalliklarni zamonaviy tekshirish, davolash usullari bilan tanishish, bemorlarni parvarishlash. Yara kasalliklari kelib chiqishi, belgilari, asoratlari va ularda tez tibbiy yordam berish. Bemorlarni rentgenologik va endoskopik tekshiruvga tayyorlash. Kasallik asoratlarini oldini olish, asoratlar yuz berganda shifokorgacha tez tibbiy yordam koʻrsatish, parhezning ahamiyatini tushuntirish. Oʻtkir va surunkali enteritlar va kolitlar kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, hamshira parvarishi. Oʻtkir va surunkali gepatit, uning kelib chiqishi belgilari, davolash, parvarishlash va oldini olish. Jigar sirrozi kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari, zamonaviy tekshirish va parvarishlash usullari. Oʻtkir va surunkali xoletsistlar, oʻt-tosh kasalligi, pankreatitlarning kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari, zamonaviy tekshirish va davolash usullari. Ovqat hazm qilish aʼzolari kasalliklarida reabilitatsiya choralari. Nutritsiologiya asosi haqida tushuncha berish.

2.5. Modul: Nefrologik kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, oʻtkir va surunkali buyrak yetishmovchiligida hamshira parvarishi va reabilitatsiyasi.

Oʻtkir va surunkali glomerulonefrit kelib chiqishi, rivojlanishi va belgilari. Oʻtkir va surunkali piyelonefritlar kelib chiqishi, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Buyrak tosh kasalligi kelib chiqishi, uning rivojlanishi, belgilari. Oʻtkir va surunkali buyrak yetishmovchiligida hamshiralik parvarishi. Buyrak sanchiq xurujida shoshilinch tibbiy yordam koʻrsatish. Zamonaviy laborator va instrumental tekshirish usullari. Buyrak va siydik yoʻllari kasalliklarida bemor reabilitatsiyasi.

2.6. Modul: Endokrin tizimi kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi va reabilitatsiya. Diyetoterapiyaning ahamiyati.

Qalqonsimon bez faoliyati va uning garmonlari fiziologiyasi haqida maʼlumot. Diffuz toksik buqoq, Miksidema kasalligi va endemik buqoq kasallikni sabablari, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Bemorni zamonaviy laborator va instrumental tekshirish usullariga tayyorlash. Qandli diabet kasalligi, kelib chiqish sabablari, belgilari, bemorlarni parvarishlash, asoratlari va ularni oldini olish. Semizlik va uning asoratlari. Insulin bilan davolash ahamiyati, dozalari, yuborish yoʻllari, saqlash qoidalari. Gipoglikemik va giperglikemik komahollardashifokorgachabirinchtibbiyyordam. Siydikda qand va atsetonni aniqlash usullari. Qandli diabet kasalligida reabilitatsiyasi. Diyetoterapiya va ergoterapiyaning ahamiyati.

2.7. Modul: Biriktiruvchi toʻqima kasalliklarida zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi, reabilitatsiyasi.

Biriktiruvchi toʻqima kasalliklarini turlari oʻtkir revmatik isitma, revmatoid artrit, podagra, Bexterev kasalligi. Kelib chiqish sabablari, bemor muammolarini aniqlash va bemorlarni parvarishlash. Biriktiruvchi toʻqima kasalliklarida bemorlarni zamonaviy tekshirish usullariga tayyorlash, bemorlar reabilitatsiyasi, bemorlar nogironligini oldini olish va ijtimoiy himoyalash masalalari. Kasalliklarni oldini olish boʻyicha tavsiyalar berish. Respublikada biriktiruvchi toʻqima kasalliklarni oldini olish boʻyicha olib boriladigan davolash profilaktika ishlari.

2.8. Modul: Asab va bosh miya qon tomir kasalliklari, zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshira parvarishi va neyrorabilitatsiya choralari.

Asab va bosh miya qon tomir kasalliklari. Ishemik va gemorragik insultlar sabablari, belgilari, kechishi. Zamonaviy tekshirish usullariga bemorlarni tayyorlash, hamshira parvarishi va davolash usullari. Neyrorabilitatsiya chora tadbirlari.

2.9. Modul: Gemotologik kasalliklar, zamonaviy tekshirish va davolash usullari, hamshiralik parvarishi. Gemotologik kasalliklar, anemiya turlari, kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, bemorlar parvarishi. Gemorragik diatez turlari, kelib chiqishi, rivojlanishi, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Qon yaratish aʼzolari kasalliklarini zamonaviy laborator tekshirish usullari. Bemorlarga toʻgʻri ovqatlanish, kun tartibini toʻgʻri tashkil qilish boʻyicha tavsiyalar berish.

2.10. Modul: Allergik kasalliklar va dori-darmonlar bilan zaharlanishlarda shoshilinch yordam koʻrsatish va hamshiralik parvarishi.

Organizm sezgirligining ortishi va uni allergik reaksiyalar koʻrinishida namoyon boʻlishi. Allergenlar haqida maʼlumot. Allergik kasalliklarning sababi, belgilari, hamshira parvarishi. Allergik kasalliklarda zamonaviy tekshirish usullari va profilaktikasi. Allergik kasalliklarda

shoshilinch yordam ko'rsatish. Zaharlanish turlari, belgilari, bemorlarni parvarishlash. Zaharlanishlarda shoshilinch yordam berish.

2.11. Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish. Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha. Favqulodda vaziyatlar, ularning sabablari, turlari. Tibbiy saralash va triaj asoslari. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bosqichlariva qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya va birinchi yordam ko'rsatish tamoyillari. Qon ketishni to'xtatish usullari. Yengil va og'ir kuyishlarda tibbiy yordam ko'rsatish. Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar, uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma'lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko'rsatish. Shok holatlarida yordam ko'rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko'rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR–yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari. **Multimediali jamlanma:** slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'kuv xonasi, mulyaj, fantom, nazorat savollarining elektron. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3. " Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi Qarori PQ 40-63 18.12.2018 yil.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 noyabr PF 4887-sonli "Aholining sog'lom ovqatlanishi va jismoniy faolligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha meyoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining meyoriy hujjatlari.

4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Natsionalnaya programma po borbeprotivtabaka v Respublike Uzbekistan na 2008 – 2012 gg. Tashkent 2007 g.

2. V.YE. Avakov O.V. Churilova A.M. Sharipov "Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi." 2010g.

3. Y. Allayorov Y. Tojiboyev "Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari."

4. M.F. Ziyayeva Terapiya (ichki kasalliklar) Toshkent-2014 y; Y.L. Arslonov, T.A. Nazarov, A.A. Bobomurodov Ichki kasalliklar Toshkent-2014y

5. A.G. Gadayev, Karimov M.SH, Axmedov X.S Ichki kasalliklar propedevtikasi. Toshkent-2014 yil.

6. A.G. Gadayev Ichki kasalliklar Toshkent 2014 yil

- 7.A.G.Gadayev, R.K.Solixodjayeva, X.SH.Raxmonov Hamshiralalar faoliyatida profilaktika.Toshkent – 2013 yil
- 8.SH.I.Karimov Sogʻlom ovqatlanish – salomatlik mezonlari Toshkent 2015 yil
- 9.Razikov A. A.G.Gadayev M.Raximova Amaliy kardiografiya Toshkent 2016 yil
- 10.V.G. Bubnov,N.V. Bubnova Osnovi meditsinskix znaniy. Moskva-2004
- 11.A.G.Gadayev, M.X.Alimova, X.S.Axmedov, S.X.Nazarova, R.K.Salixodjayeva, L.X.Musadjanova “Umumiy amaliyot hamshiralari” uchun amaliy- ilmiy koʻnikmalar toʻplami Toshkent 2011
- 12.M.B.Xodjayev, R.Z. Mamaniyozov Terapiya fanidan maʼruzalar matni Samarqand 2012 yil
- 13.Shukina T.Y. Revmatizm: Osnovi sovremennogo lecheniya: Simptomi, licheniye, profilaktika. – Izdatelstvo A.V.K. – Timoshka, 2002g.
- 14.Chazov YE.I. Golitsin S.P. Rukovodstvo po narusheniyamritmasedsa. M. 2008g.
- 15.A.G.Gadayev, M. Ziyaeva, R. Toʻraqulov “Terapiya” oʻquv qoʻllanma Toshkent 2022 yil
- 16..Yu.Umarova "Hamshiralik ishi" Toshkent-2015y.
- 17.Yu.Allayorov, Yu.Tojiboev "Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari."2017y.
- 18.V. E. Avakov O. V. Churilova A. M. Sharipov "Birinchi shoshilinch tibbiy yordam bo'yicha qo'llanma." 2010 yil.
- 19.D. M. Sabirov, A. Z. Gazizov "Birinchi tibbiy yordam" 2017 yil.
- 20.V. N. Turaqulov, F. A. Qurbonov, K. R. Tongotarova“Anesteziologiya va intensiv terapiya hamshiralik parvarishi.” Oʻquv –qullanma.2017 yil.
- 21.Amerika yurak assotsiatsiyasi (American Heart Association) birinchi yordam bo'yicha qo'llanma, jumladan “Yurakni qayta jonlantirish (CPR) bo'yicha tavsiyalar. 2020 yil.

4.3.3.Elektrontaʻlimresurslari

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

www.medi.ru

www.medlinks.ru

www.medscape.com

www.medland.ru

www.med-lib.ru

www.ksmed.ru/pat/gynecology

www.medsan.ru

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1.Yakuniy attestatsiyaga qoʻyiladigan talablar, oʻtkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash Vazirligining 2020yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugʻi 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish taʼlim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va koʻnikmalarini baholash toʻgʻrisidagi Nizom» ga asosan oʻtkaziladi.